

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-dekabrida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 25 181,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 3,9 % ga o'sdi.

2018 yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 6 895,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,2 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIM ni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish (yanvar-dekabr)

	Mlrd.so'm		2017 y. ga nisbatan % da
	2017 y.	2018 y.	
I. YaHM	19 837,5	25 181,2	103,9
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 858,3	23 812,3	103,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	979,2	1 368,9	105,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 858,3	23 812,3	103,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7 256,7	9 345,3	101,7
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 601,2	6 122,2	105,7
sanoat	3 713,3	4 907,4	104,8
qurilish	887,9	1 214,8	109,6
Xizmatlar	7 000,4	8 344,8	104,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 615,3	1 971,8	104,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 579,4	1 718,6	105,6
boshqa xizmat tarmoqlari	3 805,7	4 654,4	104,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 101,7 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 39,2 %), sanoat – 104,8 % (20,6 %), qurilish – 109,6 % (5,1 %) va xizmatlar sohasi – 104,7% (35,1%).

2018 yilning yanvar-dekabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 94,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 5,4 % ini tashkil etdi.


Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 0,7 % punktga oʻsdi va hisobot yilida 39,2 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda) tarmogʻining ulushi 1,3 % punktga oʻsdi va 25,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 35,1 % ni tashkil etdi va 2017 yil mos davri (37,1 %) bilan taqqoslanganda 2,0 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2017 yil yanvar-dekabr




2018 yil yanvar-dekabr



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qoʻshilgan qiymati
- Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi
- Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)
- Xizmatlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,3 % ni (2017 yil yanvar-dekabr – 8,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 7,2 % ni (8,4 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 19,6 % ni (20,1 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(2018 yil yanvar-dekabr, jamiga nisbatan foizda)



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar